
Alisher Navoiy tavalludining 581 yilligiga ajoyib tuhfa

So’z mulkining sultoni Hazrat Mir Alisher Navoiy tavalludining 581 yilligi munosabati bilan Fanlar akademiyasi O’zbek tili, adabiyoti va folklori instituti yetakchi ilmiy xodimi Burobiya Rajabovaning “Boqiy vasiyatnomalar” kitobi nashr etildi.



Mazkur kitobda Alisher Navoiy asarlarida tasvirlangan tarixiy va badiiy obrazlar, timsollar tahlil etilgan. Uning moliyaviy ibodati, mulk haqidagi qarashlari, ayrim fazilat va qadriyatlar haqidagi mumtoz talqinlar tarannum qilingan poetik lavhalar va badiiy mahorati, boqiy vasiyatnomalari, so’z muddaolari, ko’ngil bilan bog’liq ifodali tasvirlari, ijod, madaniy muhit, ilm-u ma’rifat bilan bog’liq masalalari ijtimoiy fikr va poetik talqin mezonida tadqiq etilgan. Alisher Navoiyning sharafli nomi zikr qilingan adabiy manbalar xususida ham fikr yuritilgan.

Kitob o’rta va oliy o’quv yurtlarining filologiya fakulteti talabalari, o’zbek mumtoz adabiyoti tarixi yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borayotgan tadqiqotchilar va keng kitobxonlar ommasiga mo’ljallangan.